



UDK: 002.55

Madinabonu NURUTDINOVA,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti

E-mail: injilkhon2022@gmail.com

UzJOKU dotsenti, filologiya fanlari doktori P.Allamberganova taqrizi asosida

CONVERGENT INFORMATION ANALYSIS IN ONLINE MEDIA

Annotation

This article is studied on the basis of theoretical and practical examples of non-traditional information types, mediometric measurement in the global context, text units, convergent property. The transformation of the format on the Internet, the radical renewal of the traditional content of media, methods of expression of journalism, is analyzed.

Key words: Radio, convergence, communication, digitization, conversion, format, media, trunk.

КОНВЕРГЕНТНЫЙ АНАЛИЗ ИНФОРМАЦИИ В ОНЛАЙН-СМИ

Аннотация

Данная статья изучается на основе теоретических и практических примеров нетрадиционных типов информации, медиаметрических измерений в глобальном контексте, текстовых единиц, конвергентных свойств. Анализируется трансформация формата в Интернете, радикальное обновление традиционного содержания средств массовой информации, выразительных средств журналистики.

Ключевые слова: Радио, конвергенция, связь, оцифровка, преобразование, формат, носитель, магистраль.

ONLAYN MEDIADA KONVERGENT AXBOROT TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqola noa'anaviy axborot turlari, global kontekstdagi mediometrik o'lchovi, matn birliklar, konvergent hossasi nazariy hamda amaliy misollar asosida o'rganilgan. Internetdagi format transformatsiyasi OAV an'anaviy kontent tarkibi, jurnalistikaning ifoda etish usullari tubdan yangilanishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Radio, konvergensiya, kommunikatsiya, digitalizatsiya, konversiya, format, media, magistral.

Kirish. Insonlar orasidagi kommunikatsiyani yangi bosqichga o'tishi orqali taraqqiyot tamaddunini ko'targan internet ommaning yangi rivojlanish oqimini boshlab berdi. Matbuot va kitob nashri bilan boshlangan ommaviy axborot vositalarining tarixi ketma ketlikda radio, televideniya kabi to'liqlik o'sish va o'zgarishlardan so'ng yangi kommunikatsiya vositasiga konvergentsiya hodisasini boshidan kechirmokda. Global tarmoq sohalar va fanlarda yangi yechimlar taqdim qilib ilmiy texnologiya asos sifatida kun sayin turli ixtirochilarga sabab bo'lmoqda. Masalan, iqtisodiy, siyosiy maydonda axborotga egalik qilish orqali dunyo aholisini boshqarishga yo'l ochib berdi. Aytish joizki internet tarmog'i ma'lumotlarning formati, janri yo'nalishini tubdan o'zgartirib ma'lumotlarning ta'sir maydonini kengaytirdi. Ma'lumotlarni bir vaqtda dunyoning istalgan nuqtasiga uzatish yoki qabul qilish amaliyoti iste'molchilarga jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etib, davlat boshqaruviga ham sezilarli ta'sir o'tkazish mumkinligini ko'rsatdi. Ommaning interaktiv axboriy faoliyati aholi qatlamlarini o'zaro onlayn faollashuvi natijasida shaxsiy, korporativ kompyuter tarmoqlari hamda mobil aloqaning uyg'unlashuviga turtki bo'ldi. OAVning kommunikativ samaradoligi nafaqat jurnalist balki auditoriyani ham axborotni izlash, uni qayta ishlash jarayonida faol yangiliklar taqdim etishga undamoqda. Aksari xorijiy bosma nashrlar onlayn tarmoq imkoniyatlaridan foydalanib mazkur jarayonda barqaror ish faoliyatini yo'lga qo'ydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Jurnalistikadagi mediakonvergentsiya tushunchasining nazariy tadqiqi qator xorijiy olimlar ishida keng yoritilgan. Jumladan: Baranova Ye., Kachkaeva G., Kalmykov A., Dbyuer T.,

Zasurskiy I., August I., Graxam M., Mashkova S., Vartanova Ye. konvergentsiya tushunchasining bosqichma-bosqich an'anaviy shakldan onlayn tarzga o'zgarib borishini tadqiq etgan. Tadqiqotchilar ishlab chiqqan nazariyaga ko'ra, OAV axboroti konvergentsiya hodisasi ostida birikib, mukammallashib, har bir o'quvchiga ma'lumotlarni moslashtirib, divergentsiya holatida yetkazib berilishi ta'kidlangan. Jurnalistika sohasidagi transformatsiya holati qator tadqiqotchi olimlar, jumladan, S. Paranyko, N. Loseva, A. Amzin, O. Silantyova, B. Viren, A. Galustyan, D. Kulchitskaya, V. Gatov, M. Kastels, M. Parks, Bregtse van der Xaak, A. Galustyan, A. Smirnova, S. Lukina, V. Polinov tomonidan o'rganilib, OAV o'zgarishga uchrashining bosqichma-bosqich rivojlanish maydoni quyidagi aspektlarga asoslangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Jurnalistikadagi mediakonvergentsiya tushunchasining nazariy tadqiqi qator xorijiy olimlar ishida keng yoritilgan. Jumladan: Baranova Ye., Kachkaeva G., Kalmykov A., Dbyuer T., Zasurskiy I., August I., Graxam M., Mashkova S., Vartanova Ye. konvergentsiya tushunchasining bosqichma-bosqich an'anaviy shakldan onlayn tarzga o'zgarib borishini tadqiq etgan. Tadqiqotchilar ishlab chiqqan nazariyaga ko'ra, OAV axboroti konvergentsiya hodisasi ostida birikib, mukammallashib, har bir o'quvchiga ma'lumotlarni moslashtirib, divergentsiya holatida yetkazib berilishi ta'kidlangan. Jurnalistika sohasidagi transformatsiya holati qator tadqiqotchi olimlar, jumladan, S. Paranyko, N. Loseva, A. Amzin, O. Silantyova, B. Viren, A. Galustyan, D. Kulchitskaya, V. Gatov, M. Kastels, M. Parks, Bregtse van

der Xaak, A. Galustyan, A. Smirnova, S. Lukina, V. Polinov tomonidan o'rganilib, OAV o'zgarishga uchrashining bosqichma-bosqich rivojlanish maydoni quyidagi aspektlarga asoslangan. Kommunikativ aloqaning bosh markazi bo'lgan internet tarmog'i xalqaro siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy sohalarda asosiy inqilobiy o'zgarishlar sifatida dunyo axborot maydoniga egalik qilish raqobatini rivojlantirdi. "Internet jamiyatda mavjud rivojlanish mashinasining elektr toki, axborot ta'minotining asosiy o'sish omilidir" – deb yozadi Marshall Maklyuen o'zining "Understanding media" (Medianing tushunish) nomli asarida. Taraqqiyot to'liqini nafaqat ommaviy kommunikatsiya va axborot vositalari balki amalda mavjud an'anaviy iqtisodiyot modellari, biznes yo'nalishi, tibbiyot va farmatsevtika, ijtimoiy yondashuv, aloqa hamda siyosiy boshqaruvga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Tarmoqda ma'lumotlar tovar mahsuloti sifatida baholanib, uning tarkibi, formati, janri va yo'nalishlariga bo'lgan an'analardan tubdan yangilandi. Fandagi texnologik detonatsiya (keskin o'zgarish, portlash) global kommunikatsiya integrallashuviga zamin yaratib, OAVning har tomonlama konvergentsiyatsini keltirib chiqardi. "...xususan, axborot texnologiyalari ta'sirida bugungi kun jurnalistikasi globalizatsiya, konversiya (konvergentsiya), digitalizatsiya (raqamlashtirish) jarayonlarini boshidan kechirmoqda" [10].

Kommunikatsiya yagona media maydonning kashf qilinishidagi texnogen (texnik vositalardagi yirik, ulkan) omillar jumladan – "raqamli tengsizlik", dasturlarning amaliy interfeysi tufayli an'anaviy jurnalistika o'z yo'nalishini raqamli formatga o'zgartirmoqda. Ma'lumotlarni bir vaqtda dunyoning istalgan nuqtasiga uzatish yoki qabul qilish amaliyoti iste'molchilarga jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etish va siyosiy jarayonlarga ham sezilarli ta'sir o'tkazish mumkinligini ko'rsatdi. Ommaning interaktiv axboriy faoliyati aholi qatlamlarini o'zaro onlayn faollashuviga olib keldi; shaxsiy, korporativ kompyuter tarmoqlari hamda mobil aloqaning uyg'unlashuviga turtki bo'ldi. OAVning kommunikativ samaradorligi nafaqat jurnalist balki auditoriyani ham axborotni izlash, uni qayta ishlash jarayonida faol yangiliklar taqdim etishga undamoqda. Aksari xorijiy bosma nashrlar onlayn tarmoq imkoniyatlaridan foydalanib, mazkur jarayonda barqaror ish faoliyatini yo'lga qo'yarmoqda. Tarmoqning xalqaro bionik xossasi tufayli – axborot beruvchi vositalarning barcha vazifalari bir nuqtada jamlanib, ma'lumotlar – matn, ovoz, tovush, grafika, xarita, video elementlar ishtirokida mukammal boyitilib, ommaga konvergent holatida taqdim etilmoqda. "Tarmoq iste'molchilariga radio eshittirishlar, TV ko'rsatuvlar, matbuot maqolalarini tanlab qabul qilish, qayta ishlash yoki uzatish imkoniyatini yaratdi", – deb yozgan olim M. Lukina "Internet OAV: nazariya va amaliyot" nomli o'quv qo'llanmasida. Demak shu o'rinda OAVdagi mediakonvergentsiya nima? – degan haqli savol tug'iladi. 2006 yil 25-27 sentyabr kunlari Rossiyada o'tkazilgan xalqaro konferensiyada bir qator olimlar va tadqiqotchilar OAV mediakonvergentsiya masalalariga keng to'xtalib o'tilgan. Baranovanning fikricha "...konvergentsiya axborotning barcha an'anaviy vositalar imkoniyatlarini yagona raqamli formatdagi yaxlit faoliyatidir. Ma'lumotlarni kompyuter elektron platformasi orqali xalqaro tarmoqdagi faoliyati nazarda tutilib bu – mediakonvergentsiya yoki mediamorfozis deb yuritiladi". Uning kelib chiqishi va tarjimai "OAV ta'limi, media pedagogikasi, media savodxonlik, axboriy xabardorlik nomli atamalar lug'ati"ga ko'ra "media" so'zi ingliz tilidan televidenie, radio, matbuotni birlashtiruvchi umumiy vosita ma'nosini anglatadi. Ammo tub ildizi lotin tilidagi "medium" so'zining ko'plik shakli "media"-masofadan turib ta'sir o'tkazish vositasi hamda axborot tashuvchi deb tushuntirilgan.

Ijtimoiy tarmoqda turli janrlar hamda ommaviy axborot vositalarining integrallashuvi fanda ularning qorishib ketishi ya'ni konvergentsiyasini keltirib chiqardi. Ushbu tushunchaning ham tub ildizi lotin tilidan kelib chiqib – convergere "–yaqinlashish", "birikib ketish" ma'nosini anglatadi. Kembrij lug'atida konvergentsiya so'zining asosi bo'lgan "converge" – tarjimada "bir nuqtadagi to'qnashuv", "bir tomonga yo'nalish", "yaqinlashish, qo'shilish" deb berilgan. Ye. Oleshkonning "Konvergentnaya jurnalistika" o'quv qo'llanmasida "Konvergentsiya axborot faoliyatining tizimdagi birlashish jarayoni bo'lib, kommunikatsiya texnologiyalarining yagona ma'lumotlar resursi integratsiyasi yoki umumiy tarkibi" deb ta'riflanadi.

Bu OAVda ko'proq turli media (radio, tv, matbuot)ning o'zaro hamkorlikdagi samarali faoliyatini, ya'ni, zamonaviy texnologiya vositalari yordamida axborotni to'liq formatda yetkazilishini nazarda tutadi. "Media va kommunikatsiya lug'ati"da esa ushbu atama har qanday axborotni birlashtirib uzatish vositasi deb aytilgan. Bunda ommaviy kommunikatsiyalarni tashkil etishning tizimlar jamlanmasini (gazeta, jurnal, radio stantsiyalari, veb-saytlar, televidenie kanallari) kiritish mumkin. Professor Boris Lazovskiyning "Jurnalistika va ommaviy axborot" – nomli lug'atida "...media turli xil ma'lumotlarni uzatishning eng zamonaviy magistrall usulidir" deb izohlangan. Ilk marotaba mazkur tushuncha dastlab, 1977 yilda V. Xel'emendik tomonidan axborot targ'ibotiga yangicha yondashuv hamda ommaviy axborot vositalarining tizimli faoliyatiga nisbatan qo'llanilgan. Olim ilgari surgan farazga ko'ra "Vaqti kelib jurnalistika tarkibi o'zgarib, amalda mustaqil bo'lgan gazeta, radio, televidenie umumiy axborot markazi ostida birikishi, ularning ommaga ta'sir kuchi samaradorligini rejalashtirish va qamrovini aniqlash" haqidagi nazariyani ilgari surgan.

Konvergentsiyaning jurnalistikaga tadqiq etilishida kommunikatsion aloqalarning yaxshilanuvi, internetning omma orasida joriy etilishi, onlayn ijtimoiy muloqot kabi omillar samarali ta'sir ko'rsatdi. Natijada OAVning an'anaviy shakli o'zgarib, matbuot, radio, televideniening internet makonidagi multimediasiyaviy muhitida faoliyat yuritishi hamda ularning o'ziga xos yaqinlashuvini vujudga keldi. V. Xel'emendik tadqiqotlariga ko'ra, OAV vazifalarini muvofiqlashtirish konvergentsiyaning quyidagi vazifalariga ko'ra amalga oshirilgan:

- har bir OAVning o'ziga xosligi;
- axborot mazmunini tizimli tahrir qilish;
- kommunikatsion vositalardagi funktsional o'zaro bog'liqlik nashr, radio va televidenie vazifalarining umumiyliigi.

Itel' de Solo Pul' o'z tadqiqotlarida: "Ikki tomonlama media vositalarining kommunikatsion aloqalari natijasida telefon, pochta telegraf hamda matbuot, radio va televidenie o'rtasidagi chegaralar bartaraf etiladi", deb ta'kidlagan. Daniel Bellning axborot jamiyati kontseptsiyasida kommunikatsiya siyosatining yangi xususiyatlari belgilab berilib, konvergentsiya atamasini qabul qilish g'oyasi ilgari surilgan.

1970 yillardan buyon ushbu atama ko'proq informatsion va kommunikatsion uskunalar, masalan, kompyuter, telefon, televizorlar integratsiyasini ifodalashda qo'llanilgan; 1980 yilga kelib AQSh va G'arbiy Yevropa telekommunikativ yangiliklar bozorini boshqarish, raqobatda ustunlikka erishish masalasi ushbu jarayonning dolzarbligini oshirdi; 1990 yili internetning ommaviy joriy qilinishi bilan konvergentsiya xususidagi yangi g'oyaviy oqimlar keng amaliy mazmun kasb eta boshladi. Bu kompyuter texnikasi, axborot tashuvchi moslamalar va kompyuter tarmoqlarining ma'lumotlar algoritmini mukammallashtirish hisobiga amalga oshdi. Aynan ushbu texnologiyalar amalda (axborot tashuvchi – kompakt-disklar) ilgari birlashtirilishi mumkin bo'lmagan

turli kommunikativ vositalar – tasvir, matn, ovoz va nutqni jamlash va tarqatish imkonini yaratdi. Jadal rivojlanib borayotgan mediasanoat raqamli ma'lumotlar taraqqiyotining eng muvaffaqiyatli nuqtasi bo'lib, mutaxassislar (Gatov V., Adamyan M.) buni “bir necha axborot vositalari va kommunikatsiya kanallarining kompyuter bilan uyg'unlashuvi” tufayli yuzaga kelgan, deya e'tirof etgan. “Multimedia so'zida bir vaqtning o'zida turli kommunikatsion kanallar orqali axborot translyatsiyasi: ya'ni audio, video, manba hamda virtual muloqotning aylanma harakati amalda namoyon bo'lishi”, – deb yozadi Ye. Oleshko o'zining “Konvergentnaya jurnalistika” nomli asarida. Shuning uchun globallashuv holatining eng maqbul umumiy, xulosaviy yechimi sifatida konvergentlashgan OAVni asosiy axborot elementi sifatida qabul qilish mumkin. M. Dedyulinaning “Tsifrovoye neravenstvo: filosofskoe osmysleniye” (Raqamli tengsizlik: falsafiy tushunish) asarida – “Amalda mavjud multimediyaviy ma'lumotlar bazasidagi infomahsulotlar turli integrativ jarayonlarda bir-biri bilan qo'shib, umumiy elektron, kontentga asos bo'ldi, – deb yozgan. Ya'ni gipermatnda turli axborot birliklari (vizual, grafik, rasm, foto, video elementlari) birlashib, yaxlit ma'lumotlar kompleksi sayt tarkibini tashkil qilmoqda. Aslida konvergentiya media sohasiga globallashuv sharoitida raqobatbardoshligini oshirishdagi transformatsiya natijasida yuzaga kelgan bo'lib, uning rivoji boshqa qator sohalar, jumladan, biologiya, etnografiya, tilshunoslik, matematika kabi yo'nalishlarda ham mavjud. Qolaversa, turli darajada amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Masalan, 1960-1970 yillarda moliyaviy sektorlardagi turli iqtisodiy tizimlarining yaqinlashuvi, ularning umumiy bir nuqtada foyda hamda daromad chizig'i ostidagi kesishuvi “Iqtisodiy konvergentiya”ni keltirib chiqardi.

Neoklassik iqtisodiyot nazariyaga ko'ra, u:

1. Sigma-konvergentiya; 2. Beta konvergentiya; 3. Absolyut konvergentiyaga bo'linadi.

Amerikalik olim Uolt Rostouning fikricha, iqtisodiyotdagi mazkur “yaqinlashuv” texnik revolyutsiya natijasida sodir bo'lgan. Ushbu termin mafkuraviy jihatdan qarama-qarshi bo'lgan ijtimoiy tuzilishlarning o'zaro moliyaviy birikuvini rag'batlantirib, ilmiy va texnologik inqilobni yuzaga keltirish ehtimolini ta'kidlagan.

Biologiyada konvergentiya tushunchasi ko'proq embriologiya va paleontologiyaga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu nazariyaga ko'ra biologik evolyutsiya natijasida organizmlarning uzoq guruhlardagi tuzilishi va funksiyalarining o'xshashliklari nazarda tutiladi. Ushbu nazariya tuzilishi jihatidan Rey Lankestning gomoplaziya (homoplasy) g'oyasiga yondash tushuncha. Fanga ushbu nazariya zoolog olim Oskar Shmidt tomonidan kiritilgan. Tilshunoslikda konvergentiya bu – globallashuv davridagi ijtimoiy tarmoqlar kommunikatsiyasi natijasida yuz bergan uzoq muddatli muloqot natijasidagi turli tillarning aralashuvidan kelib chiqqan. Unda mazkur aralashuv termin, yangi o'zlashgan so'z sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Tilshunoslikdagi konvergentiya – bir va undan ortiq lingvistik mohiyatni yaqinlashishi yoki mos kelishi sifatida qaraladi. Matematik konvergentiya holati esa tarkibiy o'xshash nazariyalarning umum yechim hosil qilishdagi qorishuvini nazarda tutadi. Etnografik konvergentiyani turli xil millat vakillarining tub kelib chiqishi jihatdan bitta madaniyat o'chog'iga mansub bo'lishi, qolaversa, jahonda kechayotgan ommaviy migratsiya holati tufayli turli madaniy aloqalarning qo'shib ketishida kuzatish mumkin.

Shuningdek, konvergentiya tushunchasi sotsiologlar, siyosatchilar orasida ham juda ommalashib ketgan. Amerikalik tadqiqotchi Daniel Bell tomonidan 1962 yilda yozilgan “Mafkuraning yakuni” nomli asari ijtimoiy-siyosiy konvergentiya nazariya aks ettirilgan eng mashhur asarlardan

biridir. Ushbu kitobda mazkur termin orqali sanoatning yangi turi paydo bo'lishi haqida xulosalar, ya'ni – postsanoat jamiyat kontseptsiyasini kuchaytirish g'oyasi ilgari surilgan. Amerikalik sotsiologning fikricha, kelajak iqtisodi ikkita muhim tarkibiy qism – axborot texnologiyalari va axborot sanoatiga tayanadi. Aynan kommunikatsiya sohasidagi turli texnik imkoniyatlarning rivojlanishi ikkinchi iqtisodiy sektor global axborot sanoatini yuzaga keltirdi. Mazkur sanoatning asosiy axborot ta'minotchisi bo'lgan internet turli OAVning konvergentiyaviy nuqtasi sifatida uning markaziga aylandi.

Tahlil va natijalar. Jurnalistikadagi mediakonvergentiya tushunchasining nazariy tadqiqi qator xorijiy olimlar ishida keng yoritilgan. Jumladan: Baranova Ye., Kachkaeva G., Kalmykov A., Dzyuer T., Zasurskiy I., August I., Graxam M., Mashkova S., Vartanova Ye. konvergentiya tushunchasining bosqichma-bosqich an'anaviy shakldan onlayn tarzga o'zgarib borishini tadqiq etgan. Tadqiqotchilar ishlab chiqqan nazariyaga ko'ra, OAV axboroti konvergentiya hodisasi ostida birikib, mukammallashib, har bir o'quvchiga ma'lumotlarni moslashtirib, divergentiya holatida yetkazib berilishi ta'kidlangan. Jurnalistika sohasidagi transformatsiya holati qator tadqiqotchi olimlar, jumladan, S. Paranyko, N. Loseva, A. Amzin, O. Silantyova, B. Viren, A. Galustyan, D. Kulchitskaya, V. Gatov, M. Kastels, M. Parks, Bregtse van der Xaak, A. Galustyan, A. Smirnova, S. Lukina, V. Polinov tomonidan o'rganilib, OAV o'zgarishga uchrashining bosqichma-bosqich rivojlanish maydoni quyidagi aspektlarga asoslangan. Jurnalistikada konvergentiya holati ko'proq turli axborot vositalari, janr, dastur birikib mukammal matn yaratish jarayoni bilan bog'lanadi. Norvegiyalik tadqiqotchilar Andres Fageryord hamda Tanya Storsul ushbu atamaning asosiy faoliyat ko'lamini sifatida quyidagilarni belgilab bergan:

Tarmoqlar konvergentiyasi – turli analog signallarning raqamli shaklda translyatsiya qilish. Bunda internet, TV, radio axboroti umumiy uzatilib, qabul qiluvchining tanlash imkoniyati kengayadi.

Xizmatlar konvergentiyasi – axborotni taqdim etuvchi vosita o'z mahsulotini ham an'anaviy, ham elektron shaklda yetkazib berishi ko'zda tutiladi.

Janr va shakl konvergentiyasi – turli mediaplatformalar (an'anaviy matbuot, TV ko'rsatuvlar, internet portallar, radio efirlar) birikib, yaxlit gipermatn tuzilishiga keladi.

Kasbiy konvergentiya – ushbu holatda jurnalist va o'quvchining ma'lum bir voqelikka nisbatan kasbiy yondashuvi nazarda tutiladi. Ya'ni taqdim etilgan axborot (internetdagi video, matn yoki gipermaqola)ga nisbatan har ikkala tomon teng fikr bildirishi yoki ma'lumotlar, sharhlar yozib qoldirish mumkin.

Kristofer Meyer va Sten Devisning “Kompaniya tirik organizm sifatida: Informatika, nanotexnologiya, biologiya va biznesning konvergentiyalashuvi” – nomli asarida, “Molekulyar kichik darajadagi axborot “bit”lari birikib umumiy ma'lumotlar kompleksini tashkil qilmoqda. Turli vositalar ma'lumotlari kompleksining konvergentiyasi amalda yangi tendentsiyalar, axborot innovatsion talqini, gibril janrlarini keltirib chiqarmoqda”, – deyiladi [9].

Axborot vositalardagi konvergentiya an'anaviy va ommaviy (yangi, zamonaviy) axborot vositalarining integratsiyasi, bu tarkibning ko'payishi yoki alternativ media platformalar yaratilishi bilan yuzaga kelmoqda. Axborot jamiyatining shakllanishi va axborot texnologiyalarning shiddatli rivojlanishi infokommunikatsion jarayonni tubdan o'zgartirib, yagona global axborot muhitini yaratdi. Bunda media matnning verbal, vizual va audio ma'lumotlarning turli ko'rinishlari jamlanishi mumkin.

O'z navbatida, passiv iste'molchilardan tashkil topgan auditoriyaning psixologik portreti faol qatnashchilarga aylandi

va ular zamonaviy texnik vositalar yordamida axborot maydoniga doimiy ta'sir qila boshladilar. Bundan tashqari, hayot jadal rivojlanayotgan sharoitda ommaviy kommunikatsiya tizimi ulkan axborot sig'imi tufayli sezilarli darajada o'zgardi.

Bugun tomoshabin kompyuter va mobil qurilmalar orqali internetdagi ma'lumotlardan individual foydalanishi, ya'ni, unga zarur bo'lgan ma'lumotning formati va hajmini mustaqil tanlashi, istalgan shaklga kiritishi mumkin. Kun sayin ehtiyoji o'sib borayotgan omma e'tiborini qozonish va yirik mass-media korporatsiyalari orasida o'z o'rini saqlab qolish raqobati media sohasidagi an'anaviy faoliyat modellari tubdan o'zgarishiga olib keldi. Sohada konvergentsiya jarayoni (ya'ni axborot vositalarning amaliy qorishuvi) amalga oshmoqda; butunlay o'zgacha jurnalistik mahsulot ishlab chiqarish maqsadida yuqori texnologiyali byusurmlar yaratildi; media-muassasalarining konversion holati bir asarda verbal, vizual, audio formatlarning birlashib ketishi; kroudsorsing xizmati; jurnalistik materiallarda janrlarning konvergent holati hamda auditoriyaga divergent moslashuvi namoyon bo'lmoqda. Internetdagi format transformatsiyasi OAV an'anaviy kontent tarkibini o'zgartirib, jurnalistikaning ifoda etish usullarini tubdan yangilanishiga olib keldi.

Uning asosiy yutug'i turli yo'nalish (internet, radio, televidenie va matbuot) faollarini universal tarmoq jurnalistining butun bir jamoasi sifatida birlashtirdi. Multimediasiyaviy janrlar orqali auditoriya uchun axborot qadri, ta'siri va ko'lamini kuchaytirish, mukammal texnik dastur interfeyslarini yaratish dolzarb vazifaga aylandi. Dasturlardagi spektral sezgirlik va asosiy afzallik bu bir axborotga mos boshqa yangilikni qidirish, e'lon yoki spamlarning istalgan bloglarga jo'natish vazifasidir. Sababi, internetdagi multimediasiyaviy gipermatn o'zining xalqaro miqyosdagi qamrovi tufayli an'anaviy matn tadbii qilishi mumkin bo'lgan g'oyaviy samaradorlikdan yuqori ta'sirga ega [7]. Multimediasiyaviy jurnalistikasining ahamiyati ham ana shunda. Demak, mediakonvergentsiyani mediatizimda axborotni takomillashtirishdagi muhim tendentsiya sifatida qayd etish mumkin. Onlayn shaklda istalgan belgi yoki obraz (rasm, kino, video, ovoz, veb-portal) axborotni to'la, aniqroq tasavvur qilish imkoniyatini beradi. U tizim integratori (echim, kompleks yechimlar tizimi) sifatida bir vaqtning o'zida matbuot, radio, teleefir vazifalarini qolaversa, kommunikatsiya telefon aloqasini ham bajarishi mumkin. Turli format, janrlarni o'zida jamlangan axborotning mukammal darajada texnologik dasturlar bilan ta'minlanishi kontent yaxlitligi, ya'ni, konvergentsiyasi taqozo etadi. Axborot OAVning konvergentsiya holatida sinergetik yondashuvni keltirib chiqaradi. Ye. Proxorovning "Jurnalistika nazariyasiga kirish" kitobida media sinergetik yondashuvlar xususida batafsil to'xtalib shunday degan: "...media tizimning sinergetik yaxlitligi barcha qismlar o'zaro yagona integral axborot mahsulotini yaratish natijasini ta'minlagandagina amalga oshadi". Ya'ni tarkibiy qismlarning hamkorlikdagi umumlashuvi nazarda tutilmoqda. Media tarmoqlarga bo'lgan e'tibor an'anaviy yondashuv va bilimlarni yangilab, uni turli elementlarga boyitdi. Ma'lumotlarni uzatishdagi xolislik va oshkoralik mohiyatidan kelib chiqib, uning rivojlanish tendentsiyalarini sinergetik tadqiqotlarda o'rganish juda muhim. Sababi OAV doimiy ravishda qator sohalar ta'sirida yangilanib, o'zgarib turuvchi ijodiy g'oyalar dunyosi bo'lib, jurnalistik faoliyatning asosini axborot tashkil etadi.

Amaliyotda ularning hamkorlikdagi faoliyati ommaviy sinergetik qamrovni keltirib chiqaradi. Bu OAVning ichki tarkibidagi sinergetik xossasi deyish mumkin. OAV ma'lumotlarni olish va tarqatish imkonini beruvchi ochiq portal bo'lib nafaqat ichki vositalari, balki boshqa soha tuzilmalari bilan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, ma'rifiy o'zgarishlarga

uchraydi. U omma fikrini shakllantiruvchi turli sohalarining sinergetik qamrovidagi doimiy o'zgaruvchan vositadir.

Konvergent holatida faoliyat olib borayotgan tahrirlartlarga quyidagilarni misol qilish mumkin:

"Московский комсомолец" gazetasining onlayn www.MK.ru formati;

РИА Новости yirik media xoldingi gazeta-jurnal nashrlaridan tashqari <https://ria.ru> onlayn platformasi;

"АиФ" – internet axborot agentligi, медиахолдинг3", www.aif.ru, www.extra-m.ru va www.trud.ru, "АиФ" gazeta nashri;

"The Times" – gazeta yirik media korporatsiyaning onlayn formati the-times.co.uk onlayn platformasi;

The Canadian Broadcasting Corporation (CBC) – qamrovida CBC radio va televidenie, multimedia platformalar: mobil aloqa xizmati, mobil yangiliklar xizmati, onlayn nashr va YouTube kanali mavjud; Bell Canada Enterprises (BCE) kabel va uyali aloqa tarmoqlariga egalik qiladi. Shuningdek CTV, TSN va Crave internet, reklama xizmatlari bor.

Qolaversa, bir qancha yirik media tizimlarni birlashtirib turuvchi mediaxoldinglar ham konvergent holatida ish faoliyatini olib boradi. Jumladan: Asaxi Shimbun jami 16 ta yirik media (televideniylardan-Osaka Television, JOBX-TV, Yomiuri Television, ABC Osaka Television, TV Wakayama, Biwako Broadcasting, radio – Osaka, Kyoto), Yahoo, Grupo globo, Fuji media holding, Mediaset, ItV plc shular jumlasidan. Yuqorida sanab o'tilgan dalillardan kelib chiqib, tarmoqning ulkan auditoriyasiga ega bo'lish, ko'proq foydalanuvchi e'tiborini qozonish maqsadida jahon axborot vositalari o'z faoliyatini onlayn formatga transformatsiya qilmoqda. "...deyarli barcha OAV vositalarining vazifalari internetgacha bo'lgan davrda yaratib bo'lingan edi. Internet barchasini birlashtirdi. U ma'lumotlar ko'lamini kengaytirib, uzatish tezligini oshirdi. Tarmoq ma'lumotlarining hajmi va sifatini o'zgartirdi, matbuotga ovoz va tasvirni, radio televideniye esa yozma matnni berdi, bir so'z bilan aytganda, bularning barchasini yagona yuqori samarali texnologik kompleksga aylantirdi" – deb yozadi A. Matyakubov o'zining "Vliyanie internet jurnalistiki na preobrazovanie sredstv massovoy informatsii" – nomli tadqiqot ishida. Qolaversa, OAVning transformatsiyalashuvidagi yangi jurnalistikaning yuzaga kelishiga asosiy ikki omil mavjud bo'lib, bular:

1. Iqtisodiy omil. Har OAV tashkiloti o'zining barqarorligini ta'minlash maqsadida yangi strategiyalar, yangi yo'nalishlarni amalda sinab ko'radi. Gazeta kontsernlarning onlayn formatga o'tishi, televideniylar ko'rsatuvlarini internetdagi saytlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Moliyaviy samaradorlikni ta'minlovchi "3 S" nazariyasi (1960 yillarda matbuotda keng qo'llanilgan) mediabiznesda daromad topish metodi o'quvchining e'tiboridan qoldi. Masalan, AQSh ning yirik nashrlari (USA Today, The Wall Street Journal, The New York Times, Los Angeles Times, Daily News, New York Post, Star Tribune, The Star-Ledger, Chicago Tribune, The Washington Post) o'z faoliyatini mazkur nazariyaga asoslanib, tiraji sonini oshirishga muvaffaq bo'lgan.

2. Ижодий омилга кўра эндиликда журналист ўз касбий маҳоратини ошириб, учала ОАВда тенг ахборот тарката олиши, эркин ижодкор сифатида ғояларини (масалан-блогерлик) кенгрок ёритиш имконига эга бўлади [1]. Жаҳонда эркин ижод қилувчи соҳа мутахассислари фаолияти таҳлил қилинганда қуйидаги журналист блогерларни мисол сифатида олдик:

Robert Fisk – britaniyalik jurnalist; «The Independent» nashrida erkin jurnalist sifatida faoliyat olib boradi. Fors ko'rfazi, Afg'oniston, Iroq urushiga doir masalalarni keng yoritgan.

Kristian Amanpur – AQSh ABC News telekanalining erkin muharriri. Xusni Muborak, Muammar Kadayfi bilan suhbatlashgan, Xalqaro ayollar media jamg'armasi a'zosi.

Robert Apshur – AQSh Nikson prezidentlik davridagi "Vottergeyt" mojarosi bilan mashhur. 1972 yilda Washington Post gazetasining erkin tahlilchi jurnalisti bo'lib ishlagan.

Shirin Bxan – hindistonlik muxbir; CNBCning erkin jurnalisti, keyinchalik boshqaruvchi lavozimida ishlagan.

Tomas Fridman – uch karra "Pulitzer" mukofoti sovrindori, siyosiy mavzular sharhlovchisi.

Internet u axborot texnologiyalarining ijtimoiy shakli u ma'lumotlarni elektr energiyasi singari qabul qilib, jamiyatning har bir bo'g'inini bir-biriga bog'lay olgan mukammal kommunikatsiya va axborot vositasidir. Internet bir vaqtning o'zida shaxs erkinligini to'liq ta'minlashi barobarida dunyoni global qishloq darajasigacha kichraytira oldi. Xalqaro tarmoqning ko'p qirrali vazifalari an'anaviy ommaviy axborot vositalariga yangi imkoniyatlar taqdim etmoqda. Radio, matbuot, TV onlayn formatda muntazam axborot uzatishi, foydalanuvchilar bilan ikki yoqlama aloqa ham gorizontall, ham vertikal aloqa (ham axborot berish, ham qabul qilish) orqali o'quvchilarning umumiy tendentsiyasidan boxabar bo'lishi mumkin.

OAV transformatsiyasi media sanoatdagi texnologik yutuqlar bilan bevosita bog'liq, ushbu jarayon 1980 yillar oralig'ida boshlangan. Yirik gazeta kontsernlari televizion kompaniyalarni, noshirlar ovoz yozish studiyalarini, telefon kompaniyalari sun'iy yo'ldosh hamda kabel aloqa vositasini sotib ola boshladi.

Kross-media jurnalistikasida bir nechta analog va raqamli ommaviy axborot vositalari: telefon, televizor, ijtimoiy tarmoqlardan foydalaniladi. Kross media yo'nalishining o'ziga xos xususiyati bir xil tarkibga ega axborotni turli platformalarda tarqatish mumkin. Bunda asosiy shart matn raqamli formatga o'zgartirilishi kerak. Garri Xeyns nazariyasi bo'yicha kross mediani to'rt asosga bo'lib o'rganish mumkin. Ular:

1. Hajmi va xususiyati jihatidan farqi katta bo'lmagan media platformalarga joylashtiriladi.

2. Tarkibi va tarqatilish kontseptsiyasi turlicha bo'lgan media platformalarda axborot tarqatiladi.

3. Muallif tomoshabinlarga axborot ta'sirini kuchaytirish maqsadida turli xil media platformalar uchun maxsus gipermatn tuzib, uni turli OAVga joylashtiradi. Bunda maqola tahririyatlar o'rtasida ko'priq vazifasini o'taydi.

4. Bunda aniq bir maqola, yo'nalish, mavzu bo'yicha turli o'yinlar, tanlovlar e'lon qilinib, muallif bevosita interaktiv tarzda faol ishtirokchiga aylanadi.

Kross-media loyihalari axborot vositalarining xususiyatlarini hisobga olgan holda auditoriya bilan muloqot qilishning eng samarali usuli bo'yicha 2010 yil "Mening chiroyli yurtim" (Moya krasivaya strana) nomli maxsus loyiha tashkil qilindi. Radio, matbuot va internet saytlari, axborot xoldinglari ushbu loyihaga jalb etildi. Loyihaga ko'ra jurnalistlar bilan birga havaskor qatnashchilar ham o'z ishlarini turli OAVda e'lon qilgan.

Jadal rivojlangan texnologik vositalarning integrallashishi bir vaqtning o'zida OAVdan ham, telefon va televizor hamda shaxsiy kompyuterdan foydalanish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Media tarmog'ida mobil telefon kommunikatsiyasining rivojlanish tendentsiyasi imkoniyatlari kengayib, telefon orqali gazeta o'qish, televizor ko'rish, radio tinglash yangiliklar bilan tanishish, qolaversa, havaskor reportyor sifatida o'z yangiliklarini baham ko'rish mumkin. Mazkur xususiyatlarning bari global internetning vertikal-gorizontall aloqa mikrouyasida mujassamlashdi. Bu iste'molda mavjud yoki kashf qilinayotgan barcha raqamli texnologiyalarni turli sharoitlarga moslashuvchan yuzalib (foydalanuvchi uchun yuqori qulaylik yaratish kontseptsiyasi, dasturiy ta'minot jamlanmasi) holatida ham mukammal ichki elementlar strukturasi bilan yuqori sifat cho'qqilarni zabt etish imkoniyatini bermoqda. Masalan, telefon orqali turli integrallashgan xizmatlarni aytib o'tishimiz mumkin. Bunga: Veb televidenie KbS, CBN, TC-news; telefondagi pochta xizmati; Telefon orqali butunjahon tarmog'i bo'lgan internetdan foydalanish dekoderlari; radio va televidenie xizmatlarining internet tarmog'i orqali taqdim qilinishini kiritish mumkin.

Xulosa. Keltirib o'tilgan misollardan xulosa qilib, mediakonvergensiya ko'p tarmoqli murakkab noyob ilmiy hodisadir. U axborot tizimida rivojlanayotgan turli dastur, format, janr va yo'nalishlarning qorishuvini taqozo etadi. Ya'ni, axborot vositalarining yaxlitlikka birikish nuqtai nazaridan ma'lumotlarning tuzilishi, uzatish texnologiyasini qamrab oldi.

Jurnalistika (matbuot, radio, televidenie) sohasi asrlar davomida o'zining beqiyos tajribasini texnik kashfiyotlarning innovatsion hosilasi sifatida ommaviy kommunikatsiyaga mos ravishda takomillashib, qayta yangilanib, o'zining ichki tarkibini mukammallashtirib bordi. Konvergensiya holatida ham axborot vositalardagi janrlar o'zaro qorishib, konvergent nashrlarning ishlash algoritmi media xususiyatlarini jamlab, o'zining mukammal shakliga keldi. Global jarayon sifatida mediakonvergensiyani shartli ravishda axborot va kompyuter inqilobi sharoitida axborot vositalardagi o'zaro ta'sirning zamonaviy shakli, ya'ni, internetlashuvi deyish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Акопов Г. Политические интернет-коммуникации как инновационный фактор общественного развития. Автореф. дисс. канд. филол. Санкт-Петербург.:– 2013 г. С. 53.
2. Алимова Г. Социал тармоқларда журналистиканинг шаклланиши, фаолият тенденциялари ва хусусиятлари (жаҳон ва миллий тажрибанинг қиёсий-типологик таҳлили) Автореф. дисс. канд. Филол. Н.–Т.: – 2018 йил–С. 42.
3. Муратова Н. Журналистика в Интернет: особенности on-line изданий Узбекистана и их функционирование в условиях глобального информационного рынка. Автореф. дисс. канд. филол. н. – Т.: НУУз, 2011 – С. 24.
4. Матякубов А. Дис. Влияние интернет-журналистики на преобразование средств массовой информации. Т. 2012 г., С. 161
5. Хелемендик В. Система средств массовой информации и пропаганды и особенности ее функционирования в условиях развитого социалистического общества: Автореф. Дис. д-ра ист. наук. М., 1982.
6. Рашидова Д. Особенности формирования Интернетовской журналистики и специфика Интернет в качестве глобального СМИ.: Автореф. дис. на соискание ученой степени канд.фил.наук. – Ташкент, НУУз. 2002 –С. 24
7. Амзин А, Галустян А., Гатов В., Кастельс М., Кульчицкая Д., Лосева Н., Паркс М., Паранько С., Силантьева О. под науч. ред. Балмасовой С. и Лукиной М.. — Екатеринбург: Гуманитарный университет, 2016. — С. 304
8. Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования М.: Academia, 2004 .- 944 с. 47с.
9. Балагушкин. Е., Белл Д. // Культурология. Энциклопедия. В 2-х т. / Гл. ред. и авт. проекта С. Я. Левит. — М.: Российская политическая энциклопедия., 2007 г. — Т. 1. — С. 169—170. — 1392.

-
10. Бабасов Е., Бернштейн В. Технологический детерменизм. Гуманитарная энциклопедия. (Электронный ресурс) 2002-2018. <https://gtmarket.ru>
 11. Бжезинский З., Хантингтон С. Политические системы: США и СССР: сходство и различия, конвергенция или эволюция. Вып. 2 / пер. с англ. — М.: Прогресс, 1965 г. — 272 с.
 12. Винер Н. Кибернетика, или управление и связь в животном и машине. 1948-1961. - 2-е издание. - М.: Наука; Главная редакция изданий для зарубежных стран, 1983. С. 344
 13. Дэвид Рендалл. Универсальный журналист. СПб 1999., Национальный Институт прессы, 2000. 120 стр